

O'ZBEK TILIDA GENDERGA OID TIL BIRLIKLARINING LINGVISTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**Avazberdiyeva Bahora Alijon qizi**

Navoiy davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20723257>

Annotatsiya. Maqolada grammatik jins (grammatik gender) hodisasining nazariy asoslari, uning jahon tillaridagi namoyon bo'lish xususiyatlari hamda o'zbek tilidagi gender ifodasi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, grammatik jins kategoriyasiga ega bo'lgan tillar bilan o'zbek tilining tipologik farqlari, kasb nomlari, olmoshlar va qarindoshlik terminlarining gender nuqtayi nazaridan o'ziga xos jihatlari yoritiladi. Shuningdek, biologik jins va grammatik jins tushunchalari o'rtasidagi farq ilmiy manbalar asosida izohlanadi.

Kalit so'zlar: grammatik jins, gender, o'zbek tili, qiyosiy tilshunoslik, leksik gender, morfologik gender, kasb nomlari, olmoshlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы грамматического рода (грамматического гендера), особенности его проявления в языках мира, а также проводится сравнительный анализ выражения гендера в узбекском языке.

В частности, освещаются типологические различия между языками, обладающими категорией грамматического рода, и узбекским языком, а также анализируются особенности выражения гендерных отношений в названиях профессий, местоимениях и терминах родства. Кроме того, на основе научных источников объясняется различие между биологическим полом и грамматическим родом.

Ключевые слова: грамматический род, гендер, узбекский язык, сопоставительное языкознание, лексический гендер, морфологический гендер, названия профессий, местоимения.

Annotation. This article examines the theoretical foundations of grammatical gender and its manifestations across the languages of the world, while providing a comparative analysis of gender expression in the Uzbek language. In particular, it explores the typological differences between languages that possess a grammatical gender system and the Uzbek language, focusing on the representation of gender in occupational terms, pronouns, and kinship terminology.

Furthermore, the distinction between biological sex and grammatical gender is explained on the basis of scholarly sources.

Keywords: grammatical gender, gender, Uzbek language, comparative linguistics, lexical gender, morphological gender, occupational terms, pronouns.

Zamonaviy tilshunoslikda so'nggi yillarda antroposentrik tilshunoslik rivojlangani sari inson omili barcha jarayonlarda asosiy o'ringa chiqqan boshladi. Shu davr mobaynida esa gender lingvistikasining shakllanishi va rivojlanishi asta-sekinlik bilan rivojlanib bormoqda. Gender lingvistikasi til birliklarining jamiyatdagi gender stereotiplarining tilda aks etishini hamda til va undagi ijtimoiy, madaniy munosabatlarning ta'sirini o'rganadi. Ta'kidlash joizki, grammatik jins va gender tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Gender ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ahamiyatga ega bo'lsa, grammatik jins ayrim tillarning morfologik tizimiga xos grammatik kategoriyadir. O'zbek tilida grammatik jins mavjud bo'lmasa-da, biroq biologik jinsni ifodalovchi ko'plab leksik birliklar uchraydi. Bu holat o'zbek tilining boshqa tillar bilan qiyoslash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Grammatik jins – otlarning ma'lum grammatik sinflarga mansubligini bildiruvchi kategoriya bo'lib, odatda, sifatlar, olmoshlar, artikllar va boshqa birlik shakllariga ham ta'sir ko'rsatadi. Grammatik jins biologik jins bilan doimo mos kelmaydi. Ayrim tillarda jonsiz predmetlar ham erkak, ayol va o'rta, ba'zan o'rta o'rtanig o'rtanig neytralga bo'linib farqlanadi.

Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, grammatik jins til tizimining ichki grammatik xususiyati bo'lib, unda har doim ha real hayotdagi biologik farqlar aks etmaydi.

O'zbek tilida grammatik jins kategoriyasi mavjud emas, otlar erkak yoki ayol jinsiga mansubligiga qarab grammatik shaklini o'zgartirmaydi hamda ular bilan bog'langan so'zlar ham jinsga moslashishni talab qilmaydi. Masalan, *yaxshi shifokor, tajribali muhandis, iste'dodli o'qituvchi* kabi so'z birikmalarida shaxsning erkak yoki ayol ekanligi grammatik shakl orqali emas, faqat nutq vaziyati va qo'shimcha ma'lumot orqali aniqlanadi. Shuningdek, uchinchi shaxs birlikni bildiruvchi kishilik olmoshi ham yagona shaklda qo'llanadi:

U bugun universitetga keldi.

U ilmiy maqola yozmoqda.

Misollardan ko'rinyaptiki, o'zbek tili grammatik jihatdan gender lingvistika tushunchasiga e'tibor qaratsak – neytral tildir.

Ingliz va o'zbek tilida grammatik jinsning qiyosiy tahlil qilinsa, ingliz tilida jins tushunchasi rus tili kabi to'liq rivojlanmagan bo'lsa-da, olmosh va ayrim leksemalarida gender farqlarini kuzatiladi:

A) *he* – erkak shaxs; *He is a professor* – U professor.

B) *she* – ayol shaxs; *She is a professor* – U professor.

C) *it* – jonsiz predmet yoki hayvonlarga nisbatan [8].

Buni egalik olmoshlarida ham bu yaqqol ko'zga tashlanadi. His egalik olmoshi ingliz tilida biror narsa-buyum erkak kishiga tegishli ekanligini ifodalaydi. *His book is interesting.*

(Uning kitobi qiziqarli). *Her* esa ayol kishiga tegishlilikni bildiradi. *Her book is interesting.* (Uning kitobi qiziqarli). Ko'rinadiki, ingliz tilida gender grammatik vositalar orqali ifodalansa, o'zbek tilida bunday xususiyat ko'zga tashlanmaydi [8].

Kasb nomlarida gender masalasi ham farqli tomonlari mavjud. Kasb nomlari gender lingvistikasining muhim tadqiqot obyektlaridan biri sanaladi. Ingliz tilida ayrim kasblar erkak va ayol shakllarga ega:

Waiter – erkak ofitsiant, *waitress* – ayol ofitsiant.

Actor – erkak artist, *actress* – ayol artist [2].

Mazkur so'zlarda maxsus morfologik vositlar yordamida jins farqlangan. Umuman, tarixan nuqtai nazardan oladigan bo'lsak, o'zbek tilida ham ayrim shunday holatlar kuzatiladi.

Buni arabcha va forsha-tojikcha yoki rus tili va u orqali o'zlashgan qatlamda ancha jins bilan bog'liq so'zlar qo'llanadi: *xodim* – *xodima*, *shoir* – *shoira*, *hofiz* – *hofiza*, *aktyor* – *aktrisa* kabilar [5].

O'zbek tilida grammatik jins mavjud bo'lmasa-da, biologik jinsni ifodalovchi ko'plab leksik birliklar mavjud. Masalan, *ota-ona*, *aka-opa*, *amaki-amma*, *tog'a-xola*, *bobo-buvi* kabilar.

Bu birliklar erkak va ayolni farqlaydi, biroq ular grammatik jins kategoriyasini hosil qilmaydi. Ular kategoriya hosil qilishi uchun ulardan oldin kelgan so'z shaklini o'zgartirishi zarur: *mehribon ona* va *mehribon ota* kabi so'z birikmalarida hech qanday o'zgarish kuzatilmaydi. Bu esa o'z o'rnida fikrimiz dalilidir [5].

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'zbek tili jins kategoriyasiga ega bo'lmagan gender neytral tillar sirasiga kiradi.

Tilimizda erkak va ayolni bildiradigan soʻzlar leksik birliklar mavjud boʻlsa-da, ular grammatik moslashuvni yuzaga keltirmaydi. Ingliz tili bilan qiyosiy tahlil natijasida olmoshlar ayrim kasb nomlarida genderning grammatik ifodasi kuzatilishi, oʻzbek tilida esa bunday hodisa mavjud emasligi izohlandi.

Oʻzbek tilida gender masalasi leksik va lingvokulturologik vositalar orqali namoyon boʻladi. Oʻzbek tilida grammatik jins va biologik jins tushunchalarini farqlash, ularni qiyosiy-tipologik asosda oʻrganish zamonaviy tilshunoslikning hozirgi kundagi muhim vazifasi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Robin Lakoff. Language and Woman's Place. New York: Harper & Row, 1975.
2. Oxford university dictionary.
3. Greville G. Corbett. Gender. Cambridge: Cambridge University Press, 1991.
4. Bernard Comrie. Language Universals and Linguistic Typology: Syntax and Morphology. Oxford: Basil Blackwell, 1989.
5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.
6. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent: Universitet nashriyoti.
7. Oʻzbek tili grammatikasi. Toshkent: Fan nashriyoti, 1975–1976.
8. Victoria Fromkin, Robert Rodman, va Nina Hyams. An Introduction to Language. Boston: Cengage Learning
9. Oʻzbek xalq maqollari. Toshkent: Fan nashriyoti.
10. Gender linguistics boʻyicha zamonaviy ilmiy maqolalar va xalqaro jurnallar.